



UDK:81'373.2

Fayziddin RAHIMOV,

Tadqiqotchi, Toshkent to'qimachilik yengil sanoat instituti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail:fayziddinrahimov@gmail.com

PhD B. Yunusova taqrizi asosida

“TO‘Y MAROSIMI” KONSEPTINING MILLIY-MADANIY TALQINI (AN‘ANAVIY RUS VA O‘ZBEK MADANIYATLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada “To‘y marosimi” konseptining milliy-madaniy talqinini an‘anaviy rus va o‘zbek madaniyatlarini misolida lingvokulturologik nuqtai nazardan tadqiq etilgan. To‘y marosimi konseptining til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiruvchi muhim konseptlardan biri sifatidagi o‘rni asoslab berilgan. Rus va o‘zbek xalqlarining to‘y bilan bog‘liq urf-odatlarini, marosimlari, qadriyatlarini, ramzlari hamda ularning tilda ifodalanish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, to‘y marosimining tarixiy taraqqiyoti, diniy va etnomadaniy omillar ta‘sirida shakllangan lingvomadaniy xususiyatlarini ham tahlil etiladi. **Kalit so‘zlar:** to‘y marosimi konsepti, konsept, milliy-madaniy talqin, qiyosiy tilshunoslik, rus madaniyati, o‘zbek madaniyati, etnomadaniyat, marosim, urf-odat, an‘ana, lingvomadaniyat, madaniyatlararo kommunikatsiya, milliy mentalitet, ramziylik, til va madaniyat.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТА «СВАДЕБНЫЙ ОБРЯД» (НА МАТЕРИАЛЕ ТРАДИЦИОННЫХ РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУР)

Аннотация

В данной статье концепт «Свадебный обряд» исследуется с позиций лингвокультурологии на материале традиционных русской и узбекской культур с целью раскрытия его национально-культурной интерпретации. Обосновывается положение о том, что концепт «Свадебный обряд» является одним из важнейших культурных концептов, отражающих взаимосвязь языка и культуры. В работе проводится сопоставительный анализ свадебных обычаев, обрядов, культурных ценностей, символов русского и узбекского народов, а также особенностей их языковой репрезентации. Кроме того, анализируются историческое развитие свадебной обрядности и лингвокультурные особенности, сформировавшиеся под влиянием религиозных и этнокультурных факторов.

Ключевые слова: концепт «свадебный обряд», концепт, национально-культурная интерпретация, сопоставительное языкознание, русская культура, узбекская культура, этнокультура, обряд, традиция, обычай, лингвокультура, межкультурная коммуникация, национальный менталитет, символика, язык и культура.

THE NATIONAL AND CULTURAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF “WEDDING CEREMONY” (A CASE STUDY OF TRADITIONAL RUSSIAN AND UZBEK CULTURES)

Annotation

This article investigates the concept of the “Wedding Ceremony” from a linguacultural perspective based on traditional Russian and Uzbek cultures, intending to reveal its national and cultural interpretation. The study substantiates that the concept of the “Wedding Ceremony” is one of the key cultural concepts reflecting the close interrelationship between language and culture. A comparative analysis is carried out of the wedding customs, rituals, cultural values, and symbolic elements of the Russian and Uzbek peoples, together with the linguistic features through which they are represented. Furthermore, the article examines the historical development of wedding traditions and analyzes the linguacultural characteristics that have evolved under the influence of religious and ethnocultural factors.

Keywords: wedding ceremony concept, concept, national and cultural interpretation, comparative linguistics, Russian culture, Uzbek culture, ethnoculture, ritual, tradition, customs, linguoculture, intercultural communication, national mentality, symbolism, language and culture.

Kirish. Tarixiy tarkib topgan milliy an‘ana, urf-odat, rasm-rusm, taomil, marosimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qator omillar bevosita va bilvosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shunday omillardan biri turmush tarzidir. U yoki bu xalqning azaliy ananasiga aylanib qolgan har bir marosim milliylik qobig‘idan chiqib, umuminsoniy qadriyatga aylanadi.

Shunday marosimlar borki, ular inson hayotida muhim o‘rin egallaydi, shuning uchun bunday jarayonlarni kishi to‘y-u tantana bilan o‘tkazishi har bir xalqning an‘anasi hisoblanadi. Bunday jarayonlar insonning yoshi, ma‘lum bir baxtli voqeasi yoki diniy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu jarayonlar odatda sovg‘alar almashinuvi, bayram dasturi, ko‘ngilochar tadbirlar va boshqalar bilan birga o‘tadi.

To‘y marosimlari murakkab yo‘l orqali shakllanadi va rivojlanadi, jamiyatdagi munosabatlar o‘zgarishi bilan birga o‘zgarib boradi. Biroq, marosim tizimlari, shu jumladan, to‘y marosimlari o‘zgarishga unchalik moyil bo‘lmaydi, ya‘ni ular jamiyatda uzoq vaqt davomida saqlanib qolgan an‘ana va qadriyatlarga asoslanadi. Bu marosimlar, ko‘pincha, zamon o‘tishi bilan o‘zgarishlarga qarshi turib, avvalgi avlodlardan qolgan shakllarini saqlab qoladi. Garchi jamiyat vaqt o‘tgan sari ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga yuz tutsada, to‘y marosimlari o‘zining qadimiy va ananaviy ko‘rinishlarini saqlab qolgan holda, sekin moslashishi mumkin. Shu sababli har bir xalqning turli xil marosim va urf-odatlarida ko‘plab tarixiy hodisalar saqlanib qoladi, ular ijtimoiy-etnografik

manba sifatida turli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida jamiyat munosabatlarining xususiyatlarini aniqlash uchun muhimdir [6].

Adabiyotlar tahlili. Haqiqatan ham, barcha davrlarda barcha to'y marosimlari diniy tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, o'zbeklarda o'g'il farzand kichik yoshli vaqtida sunnat qilinishi lozimligi diniy qarashlar bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Bu to'y hadislarida aytilishicha, bolalar 5, 7, 9, 11, 14 yoshgacha bo'lgan davrda sunnat qilinishi uqtirilgan, shundagina go'yo uning qo'li halollanib, haqiqiy musulmon bo'ladi.

Rus madaniyatida esa bu kabi marosimlar o'tkazilmaydi. Ularda farzandning haqiqiy nasroniy bo'lishini "Cho'qintirish" marosimi (крещение) orqali amalga oshiriladi. Bu marosim pravoslav an'analari asoslangan bo'lib, u nasroniylik e'tiqodining muhim marosimlaridan biri hisoblanadi. Bu marosim odatda cherkovda o'tkaziladi va chaqaloq yoki kattalar nasroniy diniga kirganligini ifodalaydi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, barcha xalq urf-odatlarini, an'ana va marosimlari muayyan tarixiy davrning maxsuli bo'lib, u moddiy turmush sharoitining ta'siri natijasida paydo bo'lgan; vaqt o'tgan sari ular tobora mustahkamlanib, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tib kelgan. Xalqning to'y atamasi bilan yuritiladigan barcha ananalari, urf-odat va udumlari shahar va qishloq aholisining kundalik turmushiga singib ketgan bo'lib, xalqning ezgu istaklari hamda intilishlarini o'zida aks ettiradi. Jumladan, rus va o'zbek madaniyatida ham to'ylar an'anaviy va zamonaviy ko'rinishlarga ega. An'anaviy to'y marosimlari xalqchil, xalq ommasi tomonidan sevib qolingani, asrlar osha yashab kelayotgan urf-odat va marosimlar davr sinovlariga bardosh berib, hozirgi turmushimiz uchun ham foydali ekanligi isbotlangan [2,3].

O'zbek xalqida to'y qadimdan to'qchilik va farovonlik belgisi hisoblanib kelinadi. Ularning nazdida to'y – xassilikka qarshi o'laroq sahiylik va mehmondo'stlik ramzidir. Shuning uchun ham qadimdan mehnatkash xalqning orzu-umid va istaklari to'y marosimlarida aks etadi [4]. O'zbek xalqining to'y marosimlari turkumida nikoh to'yi alohida o'ringa ega va uning tarixiy shakllanishi va buguni undagi rasm rusmlarning farqli jihatlarini juda ko'p.

Qadimda o'zbek xalqi orasida o'g'il yoki qiz bolalar tu'gilgandan so'ng ularni beshikda yotgan vaqtlaridayoq ularni bir-birlariga unashtirib qo'yish odati bo'lgan. Bu odat ko'pchilik joylarda "Beshik kardi", "beshik kertti", "beshik ketti" degan nomlar bilan yuritilgan. Bunda yosh o'g'li bo'lgan ayol o'z atrofidagi kishilarning birortasi qiz ko'rgan bo'lsa, ularning eshigini yengining yoki etagining uchi bilan supirib kelib, shu bilan xonadon qizini o'g'lga so'ramoqchi ekanligini bildirgan. Qiz bilan yigit balog'atga yetib unashtirilgandan so'ng, bo'lajak kelin baholangan. Bu turkiy xalqlarda qalin puli deb atalsa, slovyanlarda veno deb nomlangan [4]. Qalin pulini berish kuyov tomonga majburiy hisoblangan. Ba'zi bir sabablarga ko'ra kuyov tomon qalin pulini to'lay olmasa, kuyov kelinning xonadonida ishlab berishi shart bo'lgan. Hattoki qalin pulining to'lash imkoniyatini topa olmagan kuyov kelinni olib qochib ketgan bu albatta qizning rozichiligi bilan amalga oshirilgan. Ular bir yilgacha boshqa joylarda yashab, keyin qishlog'iga qaytib kelishi mumkin bo'lgan. Qiz olib qochilsa qalin to'lashdan qutilgan.

Qadimda o'zbeklar juda erta turmush qurishardi: turmush qurish yoshi 15 yoshni tashkil etgan. Agar qiz 25 yoshgacha turmushga chiqmasa, u qizlar "qari qizlar" deb atalgan.

O'zbeklarda bir erkak bir necha ayol bilan turmush qurib yashash imkoniga ega bo'lgan. Asosan bu holat boy, o'ziga to'q bo'lgan oilalarda kuzatilgan. Buning isbotini biz

Abdulla Qodiriyning "O'tgan Kunlar", Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Biroq, erining faqat birgina rasmiy xotini bo'lib, u "birinchi xotin" deb atalgan. Nikoh to'ylarini o'tkazish hamma vaqt o'z ichiga uch asosiy davrni olgan. Ana shu davrda o'ziga xos urf-odatlar, rasm-rusmlar bajarilgan. Ota-bobolarimizning udumlariga ko'ra, har bir oilada qiz va o'g'il uchun ularning yoshligidan to'y taraddusi bo'lgan. Ular uchun kerakli ashyolar to'plashgan, kam-ko'stlari qilib borilgan. Yigit va qiz balog'at yoshiga yetgandan so'ng ularning "boshini ikkita qilish" harakatiga tushganlar. Bu jarayonda ota-onalarning roli birinchi o'rinda turgan. Agar ular xohlashsa yigit bilan qiz unashtirilgan va ular bir-birlarini chimildiqda ko'rishgan. Sovchilik marosimi ham o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Sovchilar qizning uyiga kelib qizning uy oldini supirishlari kerak bo'lgan. Qizning onasi ularni "Xush kelibsizlar, marhamat" deb kutib olishlari va uyga taklif qilishlari odat bo'lgan. Birinchi maortasida qizning ota-onasi uydagilar bilan maslahat qilib olishini so'ragan. Shuning uchun ham bir-ikki kundan keyin sovchilar yana kelishgan. Shunda qizning ota-onasi rozichiligini bildirishgan. Bu kuni olingan javob "boshi bog'landi" nomi bilan yuritilgan. Kelgan sovchilarga oq ro'molga tugilgan ikkita non, qatlama, bir ro'molcha berilgan. Sovchi bu tugunchani kuyovning onasiga bergan. Ona tugunchadagi ikki qatlamani sindirib, hammaga ulashgan. Bazi joylarda, sovchilar qizning uyiga bir necha bor qatnashgan. Bu qatnash davrini "kovush yirtar" deb ataganlar[5].

Kelin - kuyov unashtirilgandan so'ng "Fotiha to'yi" qilingan. Bunda kuyov tomon kelinning uyiga 10 taga yaqin kishi bo'lib, qo'y, yog', guruch, un, sabzi, non-patir, shira-yu sharbat, meva-cheva, kelinga sarpo, material, ko'rpalik, yostiqlik, joynamoz va dasturxonliklar bilan kelishgan. Kuyov tomonni kelin tomon yaxshilab mehmon qilishgan. Keyin kelin tomon kuyov tomon mehmonlari ketish arafasida sovg'a - salom ulashgan. Bu "Quda kiyit" deb nomlangan. Fotixa to'yi o'tgandan so'ng hayit bayramlarida kuyov tomon kelin tomonga sovg'a salomlar jo'natgan bu xalq tilida "hayitlik" deb atalgan.

Shuningdek to'y marosimining dastlabki davrida xalq orasida bir qator odatlar ham bo'lgan. To'y marosimi kunini belgilashda ayrim diniy tushunchalar ham bo'lgan. Jumladan safar oyida to'y qilib bo'lmaydi, bu xatarli deb bilishgan. Agar shu oyda to'y qilish zarurati tug'ilgudek bo'lsa, to'y boshlashdan oldin qiz tomonga xamirturush yuborilgan va to'y o'tkazilgan. Shu tariqa xalq ongida shunday qilinsa to'y safar oyida emas ashur oyida o'tgan deb hisoblanilgan.

Tahlil va natijalar. Kelin tushirish marosimi bu to'y kuni hisoblanib qadimda asosan kech kuz yoki qishda bahorgi ishlar boshlangunga qadar o'tkazilgan. To'y mol so'yish, non va pishiriqlar pishirish bilan boshlangan. To'y uch kun davom etgan. Birinchi kuni ertalabdan yaqinlar qo'shnilar, qarindosh urug'lar kelishgan. Ularga alohida osh tortilgan. Kechqurun kuyov va uning do'stlari qiznikiga nikoh o'qitishga borishgan. Nikoh asosan yigit bilan qizning bir-birlariga roziligini so'rash, berilgan javobni o'tirgan vakillar eshitishi bilan ijro etilgan. Shu jarayonda kelinning "Roziman" deb beradigan so'zi uchun yangalar tomonidan pul so'ralib, "Qiz tili puli" deb nomlangan. Ushbu kunda kelin qo'shnisining yoki tog'asining uyida "qiz oshi", "qiz majlisi" o'yinlarini o'tkazgan [7,8].

Ikkinchi kuni kuyov kelinni olib ketgani do'st-yorlari bilan kelishgan. Kelin tomondan ularni yangalar yaxshilab mehmon qilishgan. Shu kunda qator urf-odatlar amalga oshirilgan. Jumladan "Oynaga qarar", "Soch siypatar", "yo'l to'sar" kabilar. Kuyovning o'rtloqlari ularni mehmon qilgan yangalarga "mehmon puli" deb pul berishgan. Shundan so'ng kelinni olib ketish mumkin bo'lgan. Kelin otasining oyog'iga bosh qo'yib, bergan noni, tuziga roziligini so'ragan. Ota qiziga

rozilik bergan. Kelinni olib kelayotganda kuyovning xonadoni oldiga katta olov yoqilgan.

Kelinni kuyovnikiga olib kelish odati va ular bilan birga bajariladigan turli xil rasm-rusmlar O'zbekiston hududining turli joylarida turli xil bo'lgan.

To'ydan keyin o'tkaziladigan marosimlar kuyovning uyida qarindosh va qo'ni-qo'shnilar bilan birgalikda amalga oshirilgan. Bu kunda "Yuz ochdi" marosimi o'tkazilgan. Buning uchun qizning tog'asi va vakil otasi osh pishirib olib kelishgan. Kelinni qaynonaning oshxonasi bilan tanishtirib, qaynona-kelinning muomalasi bir – biriga shirin bo'lsin degan maqsadda bir shirinlikni ikki tomonidan birdaniga tishlatganlar.

To'ydan bir hafta o'tib qizning ota-onasi qizini o'z uyiga chaqirgan va bu "qiz chaqirdi" marosimi deb atalgan.

To'ydan so'ng ikkinchi haftada kelin va kuyov tomon qarindoshlari kelinni ko'rgani kelishgan va bu "kelin ko'rdi" yoki "yo'qlandi" deb nomlangan.

Bugungi kunda bu marosimlarning aksariyati to'laligicha bo'lmasada, bazi bir hududlarda saqlanib qolgan. Yuqoridagi rasm-rusmlardan shuni anglash mumkinki, o'zbek to'ylarida birgina nikoh marosimida ellikdan ortiq urf-odatlar amalga oshirilgan va bu juda katta harajatni talab qilgan.

An'anaviy rus to'yi, "xristianlik dinigacha va undan keying davrlarda o'tkazilgan marosimlardan tashkil topgan. Keyinchalik, u o'zining qadimgi asosiga xristian elementlarini (masalan, to'y kunida nikohni amalga oshirish) muvofiq ravishda qo'shgan, shuningdek, boshqa tashqi ta'sirlarni ham qabul qilgan"[8]. Hozirda to'yda o'tkaziladigan ba'zi marosimlar yoki ularning qismlari shakllantirilgan yoki

soddalashtirilgan. Biroq, an'anaviy rus to'yi marosimlarining asosiy jihati deyarli o'zgarmagan holda saqlanib qolingan. Bu marosimlar rus xalqining madaniy merosi, oilaviy qadriyatlarini va diniy ishonchini ifodalab, ular turmush tarzining ajralmas bir qismiga aylangan.

Rus madaniyatida ham o'zbeklarniki kabi to'y marosimlari asosan qishloq xo'jalik ishlari tugagandan keyin, kuzda va qishda, go'sht yeyish davrida o'tkazilgan. Ruslarda asosan to'y marosimi deyilganda qiz va yigitning nikoh to'yi tushiniladi. An'anaviy rus to'y-marosimlari ham o'zbek to'y-marosimlari kabi uch bosqichga bo'linadi: to'yga tayyorgarlik bosqichi, to'y marosimi va to'ydan keyingi marosimlar. Har bir bosqichda o'ziga xos marosimlar, urf-odatlar va an'analar mavjud bo'lib, ular rus xalqining madaniy va diniy qadriyatlarini aks ettirgan. To'ylarning har bir bosqichida turli xil tomosha, o'yinlar, qo'shiqlar va raqslar orqali jamiyatning qadimiy an'analari ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, "to'y marosimi" konsepti rus va o'zbek xalqlarining milliy-madaniy qadriyatlarini, urf-odatlarini hamda etnomadaniy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan muhim lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Mazkur konseptning qiyosiy tahlili ikki xalq madaniyatida to'y marosimining umumiy va milliy o'ziga xos jihatlari aniqlash imkonini berdi. Har ikkala madaniyatda ham to'y oila qurish, avlod davomiyligi, jamiyat birligi va ezgu tilaklar bilan bog'liq umumiy mazmunga ega bo'lsa-da, ularning til vositalarida ifodalinishi, marosim tarkibi, ramziy belgilar va milliy qadriyatlarini aks ettirish usullarida sezilarli farqlar kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 267–279.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: РУДН, 1997. – 331 с.
3. Зеленин Д.К. Восточнославянская этнография / пер. с нем К.Д. Цивинной.-М.: Наука, 1991.-511 с.
4. Ismailov H., To'y va to'y marosimlari o'tmishda va hozir, O'zbekiston SSR "Fan": 1973.
5. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
6. Маслова В.А. Лингвокультурология. – 5-е изд. – М.: Академия, 2019. – 208 с.
7. Морозов И. А. «Женитьба добра молодца»: Происхождение и типология традиционных молодежных развлечений с символикой «свадьбы» / «женитьбы». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук — Москва, 1999; Зорин Н.В. Русский свадебный ритуал. - М.: Наука, 2001. - 248 с.
8. Мызникова Я. В. Лексика свадебного обряда в говорах Симбирского Заволжья // Лексический атлас русских народных говоров (Материалы и исследования) 2017. — СПб., 2017. — С. 423—435.
9. Назаров Қ. Ўзбек халқ урф-одатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
11. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Тошкент: Sangzor, 2006.
12. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. – 3-е изд. – М.: Академический проект, 2004. – 992 с.
13. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006–2008.
15. Хайруллаев М. Ўзбек халқ анъаналари ва маросимлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.